

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

YANVAR

ANDIJON, 2025

## MAQSADGA ERISHISH YO'LIDAGI KURASH

Shirin O'tkirova

Hayotda ko'plab insonlar orzulariga erishish uchun kurashadi, ammo ba'zilariga bu yo'l oson bo'lmaydi. O'z orzusini amalga oshirish uchun qiyinchiliklarga qarshi kurashish, ba'zida esa jamiyatning fikriga qarshi turish talab etiladi. Har bir insonning orzusi va maqsadi bor, lekin ba'zi odamlar uni amalga oshirishda turli to'siqlarga duch kelishadi. Aynan shunday kurashni bir farzand, Anvar, o'z hayotida boshladi. Anvarning hayoti mактабда boshlanadi. U o'qituvchilar farzandi bo'lismiga qaramay, odatdagи boshqa bolalar kabi sho'xlik qilish huquqidан mahrum edi. U doimo bilimli va intizomli bo'lishi kerak, deb hisoblanardi. Sinfda, Odil va Qobil kabi aqlli va odobli bolalar bo'lsa-da, Anvar o'zining sho'x va tartibsiz xarakteri bilan ajralib turardi. Ammo, bu uning o'z maqsadlariga erishishdagi orzularidan voz kechishiga olib kelmadi. O'qituvchilar doim uning ustidan kulib, "O'qituvchining bolasi ham shunday bo'larmikan?" deb aytishar edi. Lekin Anvar bunday gaplarga parvo qilmasdi. U har doim o'zini himoya qilib, "Nima, o'qituvchining farzandi odam emasmi? Uning ham o'zini xohishlari, sho'xliklari bo'lishi mumkin, deb o'ylayman. O'qituvchini bolasi degani, hamma fanni yaxshi o'qishi shart degani emas. Axir uning boshqacha orzulari bor, otasi yoki onasining kasbini davom ettirishi shart degani emas," der edi. Uning fikrlari o'ziga xos edi, va ba'zida bu gaplarda haqiqatan ham ma'no bor edi. Anvarning onasi ona tili o'qituvchisi bo'lsa, otasi esa harbiy edi. Ularning kasbini davom ettirishni Anvar istamadi. Uning orzusi – sportchi bo'lish edi. Futbolni sevgan Anvar, shu yo'nalishda rivojlanish uchun o'zining kuchini sarflardi, lekin ota-onasi uning bu tanlovini qabul qilishmaydi. Ular Anvarni o'z kasblariga mos ravishda o'qitish, uni yuqori o'quv kurslariga qo'yish uchun ko'plab harakatlar qiladilar. Lekin Anvarga bu yoqmasdi va u hech qachon fanlarga qiziqish uyg'otolmasdi. Bir kuni Anvar yashirinchha futbol kurslariga qatnashib, o'zining qobiliyatini rivojlantirardi. Bu kurslar uning hayotida katta ahamiyat kasb etdi. Bir kuni, futbol bo'yicha xalqaro olimpiada e'lonini ko'rib, Anvarning qiziqishi yanada ortdi. U o'z maqsadiga erishish uchun juda ko'p vaqtini mashg'ulotlarga bag'ishladi. Bu olimpiada – uning uchun faqat g'oliblik emas, balki o'z qobiliyatini dunyoga ko'rsatish imkoniyati edi. Musobaqa kuni Anvar juda hayajonli bo'ldi. Boshqalar ota-onalari yoki murabbiylari bilan kelgan edi, lekin Anvar yolg'iz edi. U hech kimga bu musobaqaga qatnashayotganini aytmagan edi. Biroq, u o'zi uchun yo'lni tanladi, va bu holatdan hech qanday xafa bo'lindi. U yolg'izlikka o'rgangan edi. Musobaqadagi shartlarni birma-bir bajara boshladi. Har bir shartni muvaffaqiyatli o'tganidan keyin, u o'zini yanada ishonchli his qildi.

Oxirgi bosqichda, Anvar uchta eng yaxshi futbolchi bilan raqobatlashishi kerak edi. U o'zini ruhlantirish uchun ko'p marta o'ziga ishonib, "Sen o'zingga ishon, sen uddalaysan. Agar shu bosqichdan o'tsang, maqsading yo'lidagi to'siqlar kamayadi va ota-onang senga ishonishni boshlashadi. Unutma, maqsadga faqat harakat orqali erishiladi," deb pichirlardi. U tinimsiz ishladi va nihoyat, g'olib bo'ldi. Anvar Respublika terma jamoasiga qabul qilindi.

Ana endi uning barcha yaqinlari unga faqat havas bilan qarashni boshladilar. Ota-onasi, o'qituvchilari – hammasi uni qo'llab-quvvatlay boshladilar. Ular, endi, uning orzulariga chin dildan ishonishdi. Anvarning hikoyasi shundan iboratki, inson hech qachon o'z maqsadi yo'lida to'xtamasligi kerak, hatto hamma unga qarshi bo'lsa ham. Agar u o'zini shu kasbda mahoratli deb hisoblasa, u erishishi kerak. Zero, tirik baliq oqimga qarshi suzadi. Ushbu maqolada Anvarning o'z orzulari va maqsadlariga erishish yo'lidagi kurashi, ota-onasining qarshiliklari va jamiyatning fikrlariga qaramay o'zini isbotlashi ko'rsatilgan. Bu maqola umumiy hayotiy g'oyalarni, qiyinchiliklarga qarshi kurashish va o'z orzulari yo'lida qat'iyat bilan harakat qilishni ta'kidlaydi.